

TOSHKENT HAQIQATI

1928-yil 11-dekabrda asos solingan

@haqiqatonline_24

Haqiqat online

haqiqatonline_

▼ Mardlar qo'riqlaydi Vatanni!

YOSHLAR UCHUN MUVAFFAQIYAT YO'LI



Chirchiq shahrida joylashgan Quruqlikdagi qo'shinlar institutida "Rahbar va yoshlar uchrashuvi" bo'lib o'tdi.

Toshkent viloyati hokimligi tashabbusi bilan Mudofaa vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi hamkorligida tashkil etilgan muloqotda asosiy e'tibor davlatimiz rahbarining joriy yil 13-yanvardagi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida belgilangan vazifalarga yo'naltirildi.

ХОКИМЛИК СОАТИ: "Раҳбар фаолиятида майда иш деган тушунча бўлмаслиги керак"

Ташкент вилояти ҳокимлигида навбатдаги "Ҳокимлик соати" муҳокамаси бўлиб ўтди. Йиғилишда ҳоким ўринбосарлари, вилоят бошқарма ва ташкилотлари раҳбарлари, соҳавий масъуллар ҳамда ҳудудий студиялар орқали шаҳар-туман ҳокимлари ва мутасаддилар иштирок эттишти.

▼ Кун тартиби

Кун тартибига мувофиқ, дастлаб аҳоли ва қишлоқ хўжалигини рўйхатга олиш борасидаги ишлар таҳлили хусусида сўз борар экан, бу тадбир шунчаки "ҳайбара-калпачилик" эмас, у юртимиз келажаги ва халқимиз турмуши учун муҳим объектив зарурат экани таъкидланди. Шу сабабли, жараёни ташкил этишда энг аввало, сифатга, яъни ҳар бир рўйхатдан ўтувчи маълумотларини

ҳамкорликни кучайтириш бўйича кўрсатмалар берилди. Йиғилишда Ўзбекистон Республикаси Президенти-нинг 2025 йил 26 декабрдаги 387-сонли қарори ижроси ҳам алоҳида кўриб чиқилди. Хусусан, туман ва шаҳарларда жойлашган истироҳат ҳамда кўнгличор боғларни хатловдан ўтказиш, уларни ободонлаштириш бошқармаларига бириктириш бўйича



Tadbirda Toshkent viloyati hokimi Zoyir Mirzayev, Mudofaa vaziri o'rinbosari Hamdam Qarshiyev, O'zbekiston xalq shoiri, Mudofaa vazirligi huzuridagi jamoatchilik kengashi raisi Iqbol Mirzo, muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan askarlar, bilim yurti ofiserlari, nuroniylar, shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy hamda ta'lim-tarbiya yo'nalishidagi mutasaddi idoralar vakillari ishtirok etdilar.

(Davomi 2-sahifada) ▶



тўғри ва масъулият билан киритишига эришиш, бунинг учун тушунтириш ва тарғиб ишларини етарли даражада олиб бориш лозимлиги алоҳида қайд этилди.

Бу йўналишда ҳудудларда аниқ ҳисоб-китоблар, ягона ёндашув ва масъулиятни кучайтириш зарурлиги таъкидланди. Айрим туманларда мавжуд камчиликлар танқидий таҳлил қилиниб, масъулларга аниқ топшириқлар берилди.

Шунингдек, "ljro.gov.uz" тизими орқали келиб тушаётган топшириқлар ижроси, "оталиққа" олинган ҳамда "огир" тоифадаги ёшларга бириктирилган раҳбарлар фаолияти муҳокама қилинди. Ёшлар билан ишлашда формал ёндашувга йўл қўйилмаётган ҳолатлар кескин танқид қилиниб, ҳар бир раҳбарнинг зиммасига юклатилган вазифалар шахсий назоратга олиниши лозимлиги қайд этилди.

Бундан ташқари, вояга етмаганлар манфаатлари йўлида алимент ундириш ишларининг бориши таҳлил қилиниб, бу масалада суд ижрочилари, маҳаллий ҳокимликлар ва мутасадди ташкилотлар ўртасидаги

ча амалга оширилаётган ишлар танқидий муҳокама қилинди. Айрим ҳудудларда бу борадаги сустраскашликларга эътибор қaratилди ва масъулларга аниқ мuddатлар белгиланди.

Мулоқот якунида вилоят ҳокими Зойир Мирзаев раҳбарлар масъулияти ва ишга муносабати ҳақида тўхталар экан:

"Ҳар бир раҳбар иш столи устига шуни алоҳида ёзиб қўйсин – раҳбар фаолиятида майда иш деган тушунчанинг ўзи йўқ. Масала – катта ёки кичик деб ажратилмайди. Аксинча, унга ечим топши, ҳар бир масала ортанда инсон тақдир турганини унутмаслик – барчамизнинг асосий вазифамиз", – деди.

Йиғилиш якунлари бўйича барча белгиланган вазифалар ижроси қатъий назоратга олиниши, ҳар бир раҳбардан аниқ натижа сўралиши маълум қилинди. Шунингдек, ҳафта давомида амалга оширилаётган ишлар юзасидан масъулларга тегишли топшириқлар берилди.

Ташкент вилояти ҳокимлиги Ахборот хизмати

Viloyat bo'ylab

ХОКИМ ЎРИНБОСАРЛАРИ ХОРИЖДА МАЛАКА ОШИРАДИ

▼ Фармон ва ижро

O'RTA CHIRCHIQ tumanida Toshkent viloyati hokimi Zoyir Mirzayev boshchiligidagi viloyatda faoliyat yurituvchi sholchilik fermer xo'jaliklari rahbarlari bilan uchrashuv tashkil etildi. Muloqotda 2025-yilda sholi yetishtirishda amalga oshirilgan ishlar, yuzaga kelgan muammolar, yo'l qo'yilgan kamchiliklar hamda joriy yil yuqori hosili olish uchun belgilangan vazifalar muhokama qilindi.

YUQORI CHIRCHIQ tumani va OLMALIQ shahrida "Rahbar va yoshlar uchrashuvi" bo'lib o'tdi. Unda yoshlarning turli mavzudagi taklif va muammolari o'rganildi. Ishsiz yigit-qizlar uchun mehnat yarmakalari tashkil etildi. Shu kuni yechimini kutayotgan masalalar hokim va mutasaddilar tomonidan ijobiy hal etildi.

BO'STONLIQ tumanida "Sea Breeze Uzbekistan" investitsiya loyihasi yuzasidan jamoatchilik eshituvi o'tkazildi. Loyiha doirasida ekologik monitoring tizimi yo'lga qo'yilishi, zamonaviy "yashil texnologiyalar" dan foydalanilishi haqida ma'lumot berildi. Shuningdek, ishtirokchilarning savollariga mutasaddilar batafsil javob berishdi. Bildirilgan takliflarni inobatga olgan holda loyiha bosqichma-bosqich, jamoatchilik nazorati ostida amalga oshirilishi ta'kidlandi.

ANGREN shahridagi 3-sonli texnikumda ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'ldi. Kechada Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat musiqali teatri repertuaridan o'rin olgan "Jadidlar" spektakli namoyish etildi. Aktyorlar Alisher Otoboyev, Qobiljon Umirov, Oltinbek Safaraliyev va Iftixor Ergashaliyevning sahnadagi ta'sirli obrazlari va tarixiy voqealarning jonli tarzda namoyish etilishi o'quvchilarda o'zgacha taassurot qoldirdi.



Бугунги кунда қишлоқ ва сув хўжалиги соҳаси мамлакат иқтисодиётининг стратегик йўналишларидан бири сифатида жадал ривожланмоқда. Аграр тармоқда рақобатбардошликни ошириш, ресурслардан оқилона фойдаланиш ва аҳоли даромадларини кўпайтириш, энг аввало, ҳудудларда самарали бошқарув тизимини йўлга қўйишни талаб этади. Шу боис Президентимиз ташаббуси билан раҳбар кадрларнинг билим ва амалий салоҳиятини оширишга қаратилган янги ёндашувлар амалиётга татбиқ этилмоқда.



2



СОН КЎПАЙДИ, СИФАТ-ЧИ?

4

YOSHLAR UCHUN MUVAFFAQIYAT YO'LI

Uchrashuvda viloyat hokimi qayd etganidek, Prezidentimiz tomonidan qo'yilgan bir qator dolzarb vazifalarga muvofiq, muddatli harbiy xizmat – faqat jismoniy va harbiy tayyorgarlik emas, balki yoshlarimiz jamiyatda mustahkam o'rini topishi uchun ularni mehnat bozoriga va mustaqil kasbga tayyorlash bosqichi sifatida tashkil etilmoqda. Jumladan, armiyada yoshlar kamida bitta kasb egasi bo'lib chiqishi bo'yicha mutlaqo yangi tizim yaratilmoqda.

Harbiy qismlardagi asosiy yo'nalish va mutaxassisliklardan kelib chiqib, askarlarni kasbga tayyorlash bo'yicha 3-6 oylik dasturlar ishlab chiqilyapti. Dasturi yakunlagan askarlar malaka imtihonidan o'tkazilib, ularga kasb sertifikatini beriladi.

Shuningdek, har yili besh ming askar saralab olinib, "Bir million dasturchi" va "Besh million sun'iy intellekt yetakchisi" dasturlari doirasida o'qitiladi.

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada)

Bundan tashqari, ularga muddatli harbiy xizmatni o'tash davrida harbiy qismning o'zida oliyog'ha o'qishga kirish uchun imtihon topshirish imkoniyati yaratiladi. Test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tganlar muddatli harbiy xizmat yakunlanishi bilan oliyog'ha o'qishni boshlaydi. Shu bilan birga, armiyadan qaytib, oliy o'quv yurtlarida tahsil olmoqchi bo'lgan yoshlarga xorijiy til va fan sertifikatini olish xarajatlari qoplab beriladi. Agar ular oliyog'ha to'lov-shartnoma asosida qabul qilinsa, foizsiz ta'lim krediti ajratiladi.

Ta'kidlanishicha, armiyadan qaytgan yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha ham alohida imtiyozlar beriladi. Jumladan, tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagidagi yoshlarning kredit xarajatining 6 foizi davlat tomonidan qoplanadi, davlat tashkilotlariga ishga kirmoqchi bo'lgan yoshlar uchun Boshqaruv samaradorligi agentligi tomonidan o'tkaziladigan test ballariga 10 foizlik imtiyoz berish amaliyoti joriy qilinadi.

Xususiy sektorda faoliyat yurit-



moqchi bo'lgan yoshlarga kasbni egallash va sertifikat olish xarajatlari qoplab beriladi.

Muloqot davomida viloyatdagi harbiy qismlar hamda texnikumlar o'rtasida o'zaro hamkorlik aloqalarini o'lga qo'yish, tajribali va yuqori malakali o'qituvchilarni jalb etgan holda hunarli, bilimli va katta salohiyatga ega askarlarni tarbiyalash, shuningdek, yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish masalalari atroficha muhokama qilindi.

– O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo'mondoni tomonidan muddatli harbiy xizmatchilarni kasbga yo'naltirish va chet tillarini o'rganishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda, – deydi oddiy askar Ulug'bek Meliboyev. – Men

ham yigitlik burchimni ado etish bilan birga, ingliz tilini o'rganyapman. Bu shaxsiy rivojlanishim va kelajagim uchun muhim qadamdir. Shuningdek, avtomobillarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ham amaliy ko'nikmalarni egallamoqdaman. Ushbu ko'nikmalar nafaqat harbiy xizmatda, balki hayotda ham asqotadi. Xizmatni tugatgandan so'ng, ingliz tili yo'nalishi bo'yicha oliyog'ha tahsil olish niyatim bor.

Tadbir yakunida muddatli harbiy xizmatni sharaflar bilan o'tayotgan, yuksak mas'uliyat va sadoqat namunasini ko'rsatayotgan askarlar taqdirlandi.

Zuhridin RAHMONOV,
"Toshkent haqiqati" muxbiri
Jaloliddin ESONOVA
olgan suratlar

▼ Маҳаллалар ҳаётидан

Кейинги йилларда олиб борилаётган ислохотлар натижасида марказдан тортиб чекка қишлоғу маҳаллаларда ҳам тadbirkorлик фаолияти жадал ривожланмоқда. Маҳаллада яратилган қулай шароитлар, маҳалла банкири институти орқали кўрсатилаётган амалий ёрдамлар эса аҳоли бандлигини таъминлаш, ишсизликни камайтиришда муҳим омил бўлмоқда. Энг муҳими, аҳолининг ўз кучи ва ташаббусига бўлган ишончи мустаҳкамланган. Бу ўзгаришлар Паркент туманидаги "Самаробод" маҳалласини ҳам четлаб ўтмади.

Шу маҳаллалик тadbirkor Ботир Тожиев 2018 йилда банкдан 33 миллион сўм кредит олиб, ўз уйида буханка нон ишлаб чиқаришни йўлга қўйди. Дастлаб кунига 500-600 дона нон тайёрлаб, маҳалладошлар эҳтиёжи қондирилди. Бу фаолият унда тadbirkorликка бўлган қизиқишни янада кучайтирди.

Бир мuddat ўтгач, Б.Тожиев маҳалладаги бўш ер майдонидида сартарошхона, автомобилларга техник хизмат кўрсатиш шахобчаси ҳамда асбоб-ускуналар дўкони очди. Натижада 6 нафар фуқаро доимий иш билан таъминланди. Ушбу лойиҳаларни амалга ошириш учун Халқ банкнинг Паркент тумани филиали 100 миллион сўм кредит ажратди. Бугун бу маъшии хизмат кўрсатиш жойлари маҳалла аҳолиси учун анча қулайлик яратди.

– Мен бу ишларни яхши ният билан бошлаганман, – дейди Бо-

“САМАРОБОД” да САМАРА БОР



тир Тожиев. – 2018 йилда олган илк кредитим билан анча оёққа туриб олдим. Кейинчалик маҳалла банкири ва банк ходимларининг маслаҳати билан фаолиятимни кенгайттирдим. Бугун маҳалламизда аҳолига хизмат қилаётган бир неча шахобчаларимиз бор. Энг муҳими, ёнимда ишлаётган инсонлар оиласига ҳам барака кирди. Давлатимиз томонидан тadbirkorлар учун яратилган имкониятлардан оқилонга фойдаланиш керак экан. Чунки бу имкониятлар аҳолининг ҳаёти фаровонлашишига хизмат қилади. Буни ўз мисолимда кўряпман.

Яна бир маҳаллий тadbirkor Дилноз Асомова беш йил аввал газобок ишлаб чиқаришга иштирослашган кичик корхона очган

эди. "Ҳамроҳ аёллар", "Оилавий тadbirkorлик" ва "Маҳаллани қўллаб-қувватлаш" дастурлари доира-сида олган кредитлар ёрдамида ишини кенгайтиришга эришди.

Корхона фойдага киргач, тadbirkor аёл ўзининг кўп иллик орузсини амалга ошириб, ярим тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқариш цехини очди. Аввалига буюртма асосида норин, қовурдоқ ва қандолат маҳсулотлари тайёрланган цехда бугунги кунда чучвара, дўлма, сомса, тефтель каби мухтажамланмоқда. Энг муҳими, маҳаллалар барқарор ривожланган масканга айланмоқда.

НОЗИМА РАСУЛОВА,
"Ташкент ҳақиқати" мухбири
Меҳриддин ИБРАГИМОВ
олган суратлар

Лекин яратилган имкониятлар, махсус дастурлар ва доимий қўллаб-қувватлашлар ёрдамида ўз ишини йўлга қўйишга муваффақ бўлдим. Қўни-қўшни, маҳалладошлар учун ҳам иш ўринлари яратишга ҳаракат қилияпман.

Хулоса шуки, маҳаллада тadbirkorликни қўллаб-қувватлашга қаратилган ислохотлар ўз самарасини бермоқда. Кичик ташаббуслар катта натижаларга айланиб, янги иш ўринлари яратилмоқда, аҳолининг эртанги кунга бўлган ишончи мустаҳкамланмоқда. Энг муҳими, маҳаллалар барқарор ривожланган масканга айланмоқда.

НОЗИМА РАСУЛОВА,
"Ташкент ҳақиқати" мухбири
Меҳриддин ИБРАГИМОВ
олган суратлар

ҲОКИМ ЎРИНБОСАРЛАРИ ХОРИЖДА МАЛАКА ОШИРАДИ

Юқори Чирчиқ туманида жойлашган Қишлоқ хўжалиги вазирилик ҳузуридаги Билим ва инновациялар миллий маркази (AKIS)да туман ва шаҳар ҳокимларининг қишлоқ ва сув хўжалиги масалалари бўйича ўринбосарлари учун илк бор ташкил этилган ўқув-амалий семинар ҳам шу мақсадга хизмат қилиши шубҳасиз.

Семинар Президентимизнинг 2025 йил 6 декабрдаги "Давлат хизматида бошқарув самарадорлигини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони ижросини таъминлашга қаратилгани билан янада аҳамиятлидир.

Очилиш тadbirida сўз олган Ўзбекистон Республикаси Президентининг аграр ривожланиш масалалари бўйича маслаҳатчиси Шухрат Ганиев, Қишлоқ хўжалиги вазири Иброҳим Абдураҳмонов, Сув хўжалиги вазири Шавкат Ҳамраев давлат бошқарувида натижага асосланган ёндашувларни жорий этиш, масъулият ва ҳисобдорликни кучайтириш бугунги кун талаби эканини таъкидладилар.

Беш кунлик семинарда иштирокчилар қишлоқ ва сув хўжалигида замонавий бошқарув моделлари, "ақлли қишлоқ хўжалиги" технологияларини жорий этиш, агросаноат тармоқларида қўшилган қиймат занжирини яратиш, қайта ишлаш ва логистика тизимларини ривожлантириш масалалари бўйича билим олишди. Шунингдек, агрокластерлар фаолиятини самарали ташкил этиш, КРП асосида баҳоланган ва режалаштириш механизмлари амалиёт билан уйғун ҳолда ўргатилади.

Ўқув жараёнига Франция, Туркия ва Хитой давлатларидан жалб этилган нуфузли экспертлар, халқаро "Simmit" ташкилоти вакиллари ҳамда маҳаллий соҳавий мухтажисларнинг жалб этилгани семинарнинг амалий қийматини янада оширмоқда. Иштирокчилар Ташкент ва Сирдарё вилоятларидаги илгор

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada)

иссиқхоналар, мева-сабзавот маҳсулотларини қайта ишлаш корхоналари, логистика марказлари ва агрокластерлар фаолияти билан танишиб, янги тажрибаларни жойларда қўллаш имкониятларини ўрганишмоқда.

Қишлоқ хўжалиги вазири ўринбосари Алишер Шукуронинг маълум қилишича, семинар якунида ўқув жараёнида фаоллик кўрсатган, аниқ натижаларга эришиш бўйича ташаббусларни илгари сурган 30 нафар туман ҳокими ўринбосарлари ҳамда тadbirkorлик субъектлари вакиллари Нидерландия, Италия, Испания ва Хитой давлатларига халқаро ма-лака ошириш дастурларига юборилди. Бу раҳбар кадрларга дунё тажрибасини ўрганиш ва уни маҳаллий шароитга мослаштириш имконини беради.

Семинарда 27 та тумандан иштирокчилар қамраб олинган. Келгусида ушбу тажриба республика бўйича 164 та ҳудудга татбиқ этилиши режалаштирилган бўлиб, бу қишлоқ ва сув хўжалиги соҳасида ягона бошқарув стандарти шаклланишига хизмат қилади.

– Семинарда олган билим ва амалий тажрибалар ҳудудларда ўз самарасини бериши шубҳасиз, – дейди Бўстонлик тумани ҳокими ўринбосари Бекзод Туропов. – Қайд этилганидек, мева-сабзавотчиликка иштирослашган ҳудудларда резавор экинлар етиштиришни кенгайтириш, сифатли ҳосил олиш ва бозор талабига мос маҳсулотлар ишлаб чиқаришда замонавий ёндашувларни қўллаш вақти келди.

Таъкидланганидек, мазкур ўқув-амалий семинар раҳбар кадрлар салоҳиятини ошириш орқали қишлоқ хўжалигида барқарор ўсишни таъминлаш, аҳоли бандлиги ва даромадларини кўпайтиришга хизмат қиладиган муҳим ташаббус экани билан янада аҳамиятлидир.

НИГОРА ҲАҚИҚАТОВА,
"Ташкент ҳақиқати"
мухбири

▼ "Toshkent haqiqati" tanishtiradi Yangi tayinlovlar

Toshkent viloyati hokimining 2026-yil 20-yanvardagi tegishli qarori bilan Xudoyberdiyev Xurshid O'tkir o'g'li Toshkent viloyati hokimligi tadbirkorlik va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish, eksportga ko'maklashish va qo'llab-quvvatlash guruhi rahbari lavozimiga tayinlandi.

X.Xudoyberdiyev 2016-yil Toshkent irrigatsiya va melioratsiya institutini tamomlagan. Mutaxassisligi bo'yicha injener-mexanik.

Tayinlovga qadar Toshkent viloyati hokimligi moliya-iqtisodiyot va kambag'alikni qisqartirish masalalari bo'yicha kotibiyati yetakchi mutaxassisi lavozimida ishlab kelayotgan edi.

Toshkent viloyati hokimining 2026-yil 20-yanvardagi tegishli qarori bilan Shoahmedov Shoxruh Shorahimovich Toshkent viloyati Sanoat zonalarini boshqarish direksiyasi direktori lavozimiga tayinlandi.

Sh.Shoahmedov 2000-yil Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, 2002-yil Toshkent davlat iqtisodiyot universitetini tamomlagan. Mutaxassisligi bo'yicha iqtisodchi, yurist.

Tayinlovga qadar Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi huzuridagi Qishloq xo'jaligini rivojlantirish xalqaro jamg'armasi ishtirokidagi loyihani amalga oshirish guruhi mutaxassisi lavozimida ishlab kelayotgan edi.

Manba: <https://t.me/toshvilpressa>



Chempionning onasi

Nurjamol Ayakayeva Toshkent metropolitenida ishlaydi. Kunora O'rta Chirchiq tumanidagi "Yangilik" mahallasida joylashgan Choldor ovulidan navbatchilikka keladi. Bu sodda ayolni ko'pchilik tanimaydi. Ammo u chempionning onasi.

▼ Oramizdagi odamlar

Darhaqiqat, uning o'g'li Aytijon Xalmaxanov yunon-rum kurashi bo'yicha mamlakat va xalqaro musobaqalarning bir necha bor chempioni.

Aytijon 9 yoshidan sport bilan jiddiy shug'ullandi. 2022 yil Italiya poytaxti Rimda o'smirlar o'rtasida o'tgan jahon chempionatida 17 yoshli Aytijon

51 kg. vazn toifasida kurashib, finalda eronlik Muhammadrizo Golamini mag'lub etdi va oltin medalni qo'lga kiritdi. O'sha kuni televizor qarshisida o'tirgan Nurjamol o'g'lining g'alabasidan ham quvondi, ham faxrlandi. Buvisi va o'zining duolari ijobat bo'lganidan ko'zlari yoshlandi. Sababi, 84

yoshni qarshilagan Gulxanoy buvi har bir musobaqa oldidan nabirasini duo bilan kuzatadi. Nabirasining yutuq va g'alabalarini ko'rish nasib qilganiga shukrlar aytadi.

Ayniqsa, 2025 yil Aytijon uchun unutilmas bo'ldi. U yetti marotaba chempionlik shohsupasiga ko'tarildi. 19 yoshida kattalar o'rtasidagi jahon chempionatida oltin medalni qo'lga kiritdi. 24 yillik tanaffusdan so'ng yunon-rum kurashi bo'yicha O'zbekistonga yana jahon chempionligini olib keldi. Xorvatiyaning Zagreb shahridagi hal qiluvchi bellashuvda Janubiy koreyalik Chung Xan-Jaeni 8:0 hisobida mag'lub etdi. Bu g'alaba nafaqat uning onasi va buvisini, balki yurtimiz sport ixlosmandlarini ham cheksiz quvontirdi.

Albatta, Aytijonning yutuqlari munosib e'tirof etildi. Yurtboshimiz tomonidan chempionga eng so'nggi rusumdagi av-

tomobil va Nurafshon shahrida qad rostlagan zamonaviy uydan xonadon sovg'a qilindi.

Yil yakunida yana bir yuksak e'tirof: "Milliy sport mukofoti-2025"da Aytijon "Yilning eng yaxshi sportchisi" nominatsiyasiga loyiq deb topildi. Bu e'tiroflar tinimsiz mehnat, temir intizom va ko'pchilikning duosi samarasidir.

– O'g'lim bilan faxrlanaman, – deydi Nurjamol opa. – U bu yutuqlarga osonlik bilan erishmadi. Qiyin kunlarida, nimadir o'xshamaganida doimo yonida bo'lishga, qo'lidan kelganicha qo'llab-quvvatlashga harakat qildim.

Metropoliten yo'laklarida ildam qadam tashlayotgan Nurjamolning qalbidam doimo bir iftixor yashaydi: u Vatani bayrog'ini dunyo arenalarida baland ko'tarayotgan chempionning onasi.

NIГОРА O'ROLOVA,
"Toshkent haqiqati" muxbiri

▼ Таассурот

Халқаро тажриба: ИЛМ УФҚЛАРИ ЧЕГАРА БИЛМАЙДИ

Бугунги глобаллашув даврида илм-фан соҳасидаги халқаро ҳамкорлик алоҳида аҳамият касб этмоқда. Бу ҳамкорлик нафақат тажриба алмашиш, балки янги илмий ғоялар, замонавий технологиялар ва илғор ёндашувларни ўзлаштириш имконини ҳам беради. Айниқса, қишлоқ хўжалиги, биология, балиқчилик каби соҳаларда бу жараённинг аҳамияти беқиёс.

Тошкент давлат аграр университети ана шундай халқаро илмий ҳамкорликни изчил йўлга қўйган олий таълим муассасаларидан бири ҳисобланади. Университетда ёш олимлар ва тадқиқотчиларни қўллаб-қувватлаш, уларнинг илмий салоҳиятини ошириш, хорижий университетларда стажировка ўташини ташкил этиш борасида самарали ишлар олиб боришмоқда. Илмий сафарларни молиявий ва ташкилий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш тизими бугунги кунда қўллаб олийгоҳлар учун намуна бўла олади.

Ана шу имкониятлар туфайли мен



ҳам Хитой Халқ Республикасининг Guangdong Ocean University (Гуандун Океан университети)да ўқув-амалий стажировка ўташ имконига эга бўлдим. Мазкур университет Хитойда аквакультура ва денгиз биоресурслари соҳасида етакчи илмий марказлардан бири саналади. У АҚШ, Япония, Жанубий Корея, Малайзия, Таиланд, Вьетнам, Россия ва Ўзбекистон каби давлатларнинг нуфузли илмий муассасалари билан ҳамкорлик қилади.

Стажировка давомида балиқчилик соҳасидаги энг замонавий илмий йўналишлар билан яқиндан танишдим. Университет лабораторияларида молекуляр биология ва ген инженериясига алоҳида эътибор қаратилган. Илмий ишлар РНК (ирсий ахборот ташувчи молекула)ни ажратиб олиш каби тажрибалардан бошланди. Бу усуллар балиқ турларининг генетик барқарорлигини ўрганиш, касалликларга чидамли зотларни яратиш ва биологик хилма-хилликни сақлашда катта имкониятлар очади.

Профессор ва тадқиқотчилар билан бўлган мулоқотлар, лаборатория кузатувлари ва услубий таҳлиллар илмий дунёқарашини янада кенгайтирди.

Сафар доирасида 11-GUANGDONG халқаро сув маҳсулотлари кўргазмаси-

да иштирок этдик. Шунингдек, "Haiwei Aquatic Technology" каби замонавий аквакультура хўжаликлари фаолияти билан танишдик. Бу ерда рақамли мониторинг, генетик селекция ва барқарор балиқчилик тизими қандай йўлга қўйилганини ўз кўзим билан кўриш имконига эга бўлдим. Айниқса, микроскопик визуализация ва рақамли тасвир таҳлили соҳасидаги илғор усуллар катта таассурот қолдирди. Барча лабораториялар юқори аниқликдаги замонавий усуналар билан жиҳозланган. Талабалар илмий тадқиқотларда фаол иштирок этади, мустақил таҳлил олиб боради. Уларнинг интизоми, жамоада ишлаш маданияти ва илмга бўлган ҳурмати таҳсинга сазовор.

Бундай тажрибалар Ўзбекистон илмий мактабларида ҳам инновацион усулларни кенг жорий этиш зарурлигини яна бир бор кўрсатди. Айниқса, ёш тадқиқотчиларда молекуляр-биологик таҳлил ва экологик мониторинг кўникмаларини ривожлантириш долзарб масаладир.

Стажировка давомида хитойлик ҳамкасблар билан Ўзбекистон сув ҳавзаларидаги балиқ турларининг биоэкологик хусусиятлари ҳамда креветка етиштириш технологиялари истиқболлари ҳақида ҳам фикр алмашдик. Ушбу ҳамкорлик самараси Улароқ, Гуандун Океан университети олимлари билан ҳаммуаллифликда тайёрлаган илмий мақоламиз Scopus базасининг Q1 тоифасидаги халқаро журналда чоп этилди.

Университетимизда халқаро ҳамкорликни янада кенгайтириш, хорижий тажрибаларни таълим ва илмий тадқиқотларга татбиқ этиш бўйича ишлар изчил давом этмоқда. Мен ҳам ўрганган билим ва методларни талабалар ҳамда ёш олимлар билан бўлишиш, амалиётга жорий этишни мақсад қилганман.

Чунки илм чегара билмайди. Уни ўрганиш ва татбиқ этишда масофа ҳам, тил ҳам тўсиқ эмас. Муҳими – интилиш, излаш ва ўрганишдан тўхтамаслик керак. Фурсатдан фойдаланиб, бундай имкониятни яратиб берган, ёш олимларни қўллаб-қувватлаб келаётган университет раҳбариятига самимий миннатдорлик билдираман.

Дилорахон ДЕҲҚОНОВА,
Тошкент давлат аграр университети
"Зоотехния ва зоотехнологиялар"
кафедраси катта ўқитувчиси,
биология фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)



▼ Назорат

МЕҲНАТ ХАВФСИЗЛИГИ: УНГА КИМ, ҚАНДАЙ АМАЛ ҚИЛМОҚДА?

Сўнгги йилларда Ўзбекистонда меҳнат хавфсизлигини таъминлаш, айниқса, қурилиш соҳасида ишчи-ходимларнинг қонуний ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш масаласи давлат сиёсати даражасига кўтарилди. Меҳнат хавфсизлиги талабларига риоя этиш нафақат иш берувчининг мажбурияти, балки ишчининг ҳаёти ва соғлиғини муҳофаза қилишнинг асосий шarti ҳисобланади. Айниқса, қурилиш объектида хавфсиз меҳнат шароитларини яратиш қонунбузилишларнинг олдини олишда ҳал қилувчи омилдир.

Куни кеча вилоят Камбағалликни қисқартириш ва бандлик бошқармаси ҳамда Давлат меҳнат инспекцияси томонидан Янгийўл шаҳрида рейд тадбирлари ўтказилди.

Назорат тадбирлари давомида айрим қурилиш объектида норасмий ишлаётган фуқаролар аниқланди. Маълумки, фуқаро ишга қабул қилган кундан бошлаб, ҳатто бир кун ишлаган тақдирда ҳам, у қонунчиликда белгиланган тартибда расмийлаштирилиши шарт. Акс ҳолда, бу меҳнат қонунчилигининг бузилиши ҳисобланади.

Шунингдек, рейдларда ишчиларнинг махсус ҳимоя бош кийимлари ва шахсий муҳофа-

за воситаларисиз ишлаётгани кузатилди. Ҳолбуки, муайян оғирликдаги қурилиш материаллари ҳар қандай вақтда ишчининг ҳаётига жиддий хавф туғдириши мумкин. Шундай шароитда ҳимоя воситаларининг йўқлиги эса бахтсиз ҳодисалар эҳтимолини оширади.

Иш берувчилардан бири Юсуфжон Деҳқонбоевнинг таъкидлашича, ишчиларга иш бошлашдан олдин махсус кийим-бош ва анжонлар берилиши шарт. Бироқ, амалда бу талабларга доимий риоя этилмайди. Очигини айтганда, қонун-қоидалар билан таништириш, ҳужжатларга имзо қўйдиришнинг ўзи етарли эмас, уларнинг бажарилиши



қатъий назоратга олиниши лозим.

– 2025 йил давомида вилоятимизда ишлаб чиқариш билан боғлиқ 70 дан ортиқ бахтсиз ҳодиса қайд этилган, улардан 21 таси ўлим билан якунланган, – дейди Меҳнатни муҳофаза қилиш бўйича бош давлат техник инспектори Бекзод Кўчқоров. – Бундай ҳолатларда мансабдор шахсларга жиноят кодексининг тегишли бандларига асосан жиноят иши қўзғатилиши белгиланган. Бу каби ҳолатлар меҳнат муҳофазасига безъитборлик оғир ҳуқуқий оқибатларга олиб келишини кўрсатади.

Маълумотларга кўра, ўтган йилда Давлат меҳнат инспек-

цияси томонидан аниқланган қарийб 4 минг нафар фуқаро расмий ишга жойлаштирилган. Бу рақамлар муаммо кўламини ҳам, уни бартараф этиш борасидаги амалий чораларни ҳам яққол кўрсатади.

Шу уринда таъкидлаш жоизки, ҳар бир ишчи ўз меҳнат ҳуқуқларидан хабардор бўлиши шарт. Акс ҳолда, у билмасдан ноқонуний жараён иштирокчисига айланиб қолиши мумкин. Қонуни устуворлиги эса фақат назорат органлари эмас, балки фуқароларнинг масъулияти орқали таъминланади.

Нигора УРОЛОВА,
"Тошкент ҳақиқати" муҳбири
Аслиддин АЛИЖОНОВ
олган суратлар

Сўнгги йилларда аҳоли сонининг ўсиши, шаҳарсозлик кўламининг кенгайиши, йирик савдо объекти ва кўп қаватли тураржойлар сонининг ортishi ёнғин хавфсизлигини таъминлаш масаласини янада долзарб қилиб қўймоқда. Шу боис, вилоят ҳудудида ёнғинларнинг олдини олиш, инсон ҳаёти ва соғлиғини муҳофаза қилиш, моддий бойликларни сақлаб қолишга қаратилган комплекс чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

ИККИ МИНГДАН ОРТИҚ КАМЧИЛИК

Хусусан, вилоят ҳокимининг "Ёнғин хавфсизлигини таъминлашнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида"ги фармойишига кўра, вилоят, шаҳар ва туманлар миқёсида махсус ишчи гуруҳлар ташкил этилди. Улар томонидан аҳоли гажвум жойлар, ёнғин ва портлаш хавфи юқори ҳисобланган объектиларда ёнғин хавфсизлиги талабларига риоя этилиши атрофича ўрганилди.

Жумладан, вилоят ҳудудида фаолият юритаётган 13 та йирик бозор, 25 та савдо комплекси, 138 та умумий овқатланиш

шаҳобчалари, 22 та оммавий тадбирлар ўтказиладиган бинолар, 38 та ёнғичан ва портлаш хавфи юқори бўлган ишлаб чиқариш объектилари, шунингдек, қурилаётган ва фойдаланишда бўлган 9 қаватдан юқори 54 та кўп хонадонли тураржойлар ҳамда бошқа кўчмас мулк объектиларида текширувлар ўтказилди.

– Ўрганишлар жараёнида жами 2 минг 200 дан ортиқ ёнғин хавфсизлигига оид камчиликлар аниқланди, – дейди вилоят Фавқулодда вазиятлар Бош бошқармаси катта инспектори Капитан Нурилсомбек Те-

шабоев. – Эътиборлиси, камчиликларнинг 2 мингдан ортиғи тегишли соҳа мутахассислари ва масъул ташкилотлар томонидан қисқа муддатларда бартараф этилди. Шунингдек, ишчи гуруҳлар профилактика тадбирларига алоҳида эътибор қаратишди. Жумладан, жойларда аҳоли билан 267 марта ёнғин хавфсизлиги қоидалари бўйича тушунтириш ишлари, амалий йўриқномалар ва суҳбатлар ўтказилди.

Қайд этилганидек, аҳоли ўртасида ёнғинларнинг олдини олиш, фавқулодда ҳолатларда тўғри ҳаракат қилиш кўникмаларини шакллантириш борасида оммавий ахборот воситаларининг ўрни катта. Шу мақсадда телевидение орқали махсус кўрсатувлар ва лавҳалар эфирга узатилиб, интернет нашрлари ва ижтимоий тармоқларда 130 дан ортиқ ахборот материаллари жойлаштирилди.

Айтиш жоизки, ёнғин хавфсизлигига амал қилиш фақат масъул ташкилотлар эмас, балки ҳар бир фуқаронинг бурчидир. Зеро, озгина бепарволик инсон ҳаёти ва мол-мулкига зиён етказиши мумкинлигини унутмайлик.

Нигора ЭРКИНБОЕВА

Абу-Дабида 23-24 январь кунлари илк марта АҚШ воситачилигида ёпиқ тарзда ўтган Украина-РФ тўғридан-тўғри музокаралар экспертлар томонидан "йирик қадам", деб баҳоланди.

МУЗОКАРА УМИД БЕРДИ, ХОЛОС...

Украина делегацияси русларнинг бу сафарги музокаралар чоғидаги хатти-ҳаракатларида ўзгаришни қайд этишган. Москва вакиллари аввалги музокара платформаларига хос бўлган очик намойишкорона ёки провокацион ҳаракатлардан тийилишган.

Абу-Даби учрашувида ҳеч қандай қарорлар чиқмаган, музокаралар динамикасида ўзгариш кузатилган. Таҳлилчиларга кўра, асосий хусусият учрашувининг тезкор ташкил этилиши ҳамда уч томонлама форматнинг ўзи эди. "Давосда эришилган келишувдан бир кун ўтар-ўтмас учрашув дарҳол ташкил этилди. Уч томонлама форматдаги музокаралар биринчи марта ўтказилди. Илгари Украинанинг бевосита иштирокисиз урушни тугатиш ҳақидаги мухокамаларни эшитиш галати эди".

Зеленский ҳам музокараларни юқори баҳолади. "Кўп нарсаларнинг муҳокама қилинишига муваффақ бўлинди. Муҳокама урушни тугатишнинг мумкин бўлган параметрлари ва Украина учун зарур



хавфсизлик кафолатларига қаратилди", деди у.

Бу баҳони Уиткофф ҳам тасдиқлади.

Украина делегациясига Миллий хавфсизлик ва муҳофаза кенгаши котиби Умеров бошчилик қилди. РФни музокараларда Бош штаб бош бошқармаси бошлиғи Костюков бошчилигидаги ҳарбий расмийлари ташкил этди.

Делегациялар таркибида ҳарбий хизматчиларнинг устунлиги ўзаро ҳужумларни тўхтатишни ўрганиш, ҳудудларни назорат қилиш, сулҳни техник жиҳатдан қандай таъминлаш кераклигига ургу берилгани айтилди.

Музокаралар бошланмасидан Москва Украина армиясини бутун

Донбассдан, шу жумладан, илгари РФ томонидан назорат қилинмаган ҳудудлардан олиб чиқиш бўйича максимал талабини яна бир бор таъкидлаган эди. Украина қатъий равишда бунга бўйсунушни рад этади. Музокараларнинг биринчи кунги якунидан сўнг – 23 январда РФ Украинага кенг кўламли ракета ва дрон ҳужумини амалга оширди.

Киев рус ракеталарининг тинчлик жараёнига қаратилганини айтди...

"Бу Трампнинг асабини бузмаслик ва тинчликни бузиш айбовларидан қочишининг ягона мақсади бўлган музокараларнинг сохта эканлигидан дарак", деб қайд этади экспертлар.

Таҳлилчиларнинг фаразига, Путин ва Зеленский ўртасидаги учрашув жуда яқин. АҚШ воситасидаги Россия ва Украина ўртасидаги музокараларнинг кейинги босқичи 1 февраль кунги Абу-Дабида давом этади. Агар у муваффақиятли ўтса, етакчилар ўртасида тўғридан-тўғри учрашувга олиб келиши мумкин...



Трамп Гренландияни ўз назоратига олишга уринишларини рад этган давлатларга қарши божлар жорий қилишдан воз кечди. ЕИга аъзо 27 давлат раҳбарлари ўтган ҳафта Брюсселда ўтган Гренландия бўйича саммитдан сўнг Оқ уй соҳибига нисбатан қарашларининг юмшагани кўзга ташланди.

ЯРАШИШ ТАРАФДОРЛАРИ



муносабатлар хушмуомалалик ва ўзаро ҳурмат асосида қурилиши кераклигини таъкидлади.

Трамп ўз таҳдидларини тўхтатмаганда, ЕИ энг кескин чораларни қўллашга тайёр бўлармиди?

Брюссель жавоб чоралари пакетини тайёрлаб қўйган эди – 93 млрд. евролик Америка товарларига божлар жорий этиш ва Мажбурловга қарши кураш инструментини (АСИ) ишга солишни ўз ичига олганди. АСИ, жумладан, хорижий компанияларнинг ЕИ бозорига киришини чеклаш ва уларнинг инвестицияларини блоклашни назарда тутди.

«Биз зарур бўлган қарши чораларни ишлаб чиққан эдик», деди фон дер Ляйен. Франция АСИдан фойдаланиш тарафдори, Макрон:

«Биз босим ёки кўрқитишни эмас, балки ҳурматни афзал кўрамыз», деса, Германия «кескинликдан қочишни» истагини айтган. Охир-оқибат бундай оғир қарорни қабул қилишга ҳожат қолмади.

Ноябрь ойида АҚШда Конгрессга оралиқ сайловлар бўлади. Фонд бозори ҳам божлар билан боғлиқ можарога асабий муносабат билдиради.

«Бу омилларнинг барчаси ҳам ўз ролини ўйнаган бўлиши мумкин, – деб тан олди фон дер Ляйен.

ЕИ давлатлари етакчилари Трамп билан муносабат борасида ҳамон турли фикрда, эҳтимолий вариантларга тайёр турмоқ лозим, дейди экспертлар.

Трамнинг Рютте билан АҚШ ва Дания ўртасидаги 1951 йилги келишувни қайта кўриб чиққани таҳмин қилинади. Унинг янги таҳрири Гренландияда АҚШ қўшинларини жойлаштириш имконини бериши мумкин...

Аброр ХОҲ,
халқаро
шарҳловчи

▼ Вилоят футболлари

Футбол бўйича Ўзбекистон чемпионати бошланишига ҳам оз фурсат қолмоқда. Жорий йилги мамлакат чемпионатида Тошкент вилояти футболлари ўзгача қайтиш қилади. Аввалги мавсумда вилоят шарафини фақатгина ОКМК жамоаси ҳимоя қилган бўлса, бу йилдан улар қаторига “Металлург”, “Нурафшон” ва “Ғазалкент” жамоалари қўшилмоқда.

Ушбу клублар бир-биридан нисбатан узокроқ нуқталарда жойлашган: “Металлург” Бекободда, ОКМК Олмалиқда, “Нурафшон” Нурафшонда, “Ғазалкент” эса Бўстонликда. Бундай географик жойлашув эса янги мавсумда футбол хавоси бутун вилоят бўйлаб кезиб юришига сабаб бўлади.

СОН КЎПАЙДИ, СИФАТ-ЧИ?

Жамоалар сони кўп бўлгани яхши. Бироқ, уларнинг келгусидаги фаолияти-чи? Ҳўш, жамоалар олдига қандай мақсадлар қўймоқда? Янги келаётганлар чемпионатда рақобатни кучайтира оладими ёки бир неча мавсум шунчаки “хўжақўрсин”га юриб, сўнг фаолиятини яқунлаб қўя қоладими? Қўйида уларнинг салоҳияти ҳақида тўхталиб ўтамиз.

ОКМК – ВИЛОЯТ ГЕГЕМОНИ

Бу жамоа ҳақида ортиқча гапириб ўтиришга ҳолат йўқ. Шаксиз, бугунги кунда олмалиқликлар вилоятнинг энг кучли жамоаси. Бир неча йил илгари халқро майдонларда ҳам юртимиз шарафини ҳимоя қилган. Вилоят жамоалари орасида айнан улар “Дўстлик”дан сўнг мамлакат чемпионатида совриндор бўла оlishан.

Бироқ, сўнгги мавсумда клубнинг ишлари унчалик муваффақиятли кечгани йўқ. “Кончилар” 2025 йилги чемпионатни 6-уринда яқунлашди. Бундай пасайиш сўнгги бор 2019 йилги мавсумда кузатилган. Ўшанда олмалиқликлар Олий лигада 8-урини эгаллашган эди. Аслида клубнинг охириги мавсумдаги ишлари ҳам унчалик ёмон кетмаётган эди. Жамоа 22-турдан сўнг учинчи ўринни эгаллаб турганди. Шундан сўнг клубнинг ишлари чапсига кета бошлади. Улар сўнгги 8 турда бор йўғи саккиз очко жамғара олди. Натижада совриндорлар қаторидан тушиб қолди.

Қоникорсиз мавсумдан сўнг жамоа таркибини янгилашга киришди. “Кончилар” 2025 йилда клуб шарафини ҳимоя қилган 9 нафар футболчи билан хайрлашди. Ҳозирда уларнинг ўрнига салоҳиятли чарм тўп усталарини олиб келиш ишлари давом этмоқда.

Дарвоқе, айни дамда олмалиқликлар Бирлашган Араб Амириликларида янги мавсумга тайёрликни давом эттиришмоқда. Кўни кеча улар Польшанинг номдор жамоаси, клублар миқёсида Европанинг нуфузли турнирларида доимий иштирок этиб келётган “Лех” жамоасига қарши баҳс олиб боришди. Гарчи беллашувда “кончилар” 1:2 ҳисобида мағлубиятга учрашган бўлса-да, кучли рақибларига етарли қаршилик кўрсата олишди.

Тайёргарлик доирасида ўтказилган аввалги учрашувда эса вилоят байроқдори Жанубий Кореянинг 5 карра, Осиё чемпионлар лигасининг 2 карра ғолиби “Ульсан ХД” клубини 3:2 ҳисобида мағлуб эттишди.

Кўриниб турибдики, олмалиқликлар янги мавсумда олдчиларига улкан мақсадни қўйишган. Бу йилги чемпионатда “кончилар”нинг рақибларига осон бўлмаслиги аниқ.

БЕКООБДАН “КАМБЭК”

Бекободнинг “Металлург” клуби ҳар қандай ҳолатда ҳам характер кўрсата олиши билан мухлислар қалбидан жой олган жамоалардан эди. Улар шу вақтга қадар 21 мавсум Ўзбекистон чемпионатида иштирок этган. 2024 йил сўнггида эса молиявий қийинчиликлар туфайли фаолиятини тўхтатганди. Қизиги, ўша мавсумда жамоа Суперлигада қолиш баҳсида “Олимпик” клубини 2:1 ҳисобида мағлубиятга учратиб, “миссия”ни аъло даражада удралаган эди. Ҳатто ўша мавсумнинг сўнгги турда чемпионликни нақд қилган, 2025 йилда Элит Осиё чемпионлар лигасида иштирок этган Қаршиннинг “Насаф” жамоасини меҳмонда 2:1 ҳисобида мағлуб эта олган, биринчи даврадаги қарама-қаршиликда ҳам улардан очко тортиб олишга муваффақ бўлди (учрашув 0:0 ҳисобидаги дуранг билан тугаган).

Афсуски, айрим сабаблар ортдан клуб бутунлай тарқатиб юборилди. Натижада жамоа кўплаб иқтидорларини шунчаки

қўйиб юборишга мажбур бўлди. Ўша вақтда бекободлик футбол мухлиси таҳририятга мактуб йўллаб, раҳбарлардан вилоятнинг олис ҳудудини футболсиз қолдирмасликни сўраган эди (ушбу мактуб газетамизнинг 2025 йилги 7-сонда чоп этилган). Орадан бир йил ўтиб, мутасаддиларнинг қўллаб-қувватлови ва саъй-ҳаракати билан “Металлург” клуби фаолияти қайта тикланди. Жамоа янги мавсумда Ўзбекистон Про-лигасида иштирок этади. Кўни кеча жамоа фаолияти қайта тиклангани муносабати билан тантанали маросим ташкил этилди. Унда клуб мураббийи сифатида тажрибали мутахассис Илҳом Мўминжонов таништирилди. Жамоага яна “Ўзметкомбинат” АЖ хомийлик қилади. Комбинат бошқаруви раиси Баҳодир Абдуллаевнинг таъкидлашича, клуб учун барча шароитлар яратиб берилди. Улардан эса ягона талаб – аввалги мавқеини тиклаб, юқори ўринлар учун курашувчи жамоа сифатида шаклланиши.

Клубнинг бошланжақ мавсумдан умидлари катта. Буни таркибга юқори савияли чарм тўп усталарини қўшиб олаётганидан билиб олсак ҳам бўлади. Ҳозирга қадар клуб аввалги мавсум “Сўғдиёна” сафида ҳаракат қилган Умид Султонов, Суперлигада етарли тажриба орттирган, ўз вақтида Ўзбекистон миллий терма жамоасига ҳам жалб этилган Жасур Ҳакимов каби футболчилар билан шартнома имзоплаб улгурди.

Фақат янгитдан ташкил этилган жамоага мавжуд қарздорлиги сабаб трансфер тақиб қўйилган. Улар уч мавсум футболчи сотиб ололмайди. Бу эса таркибни қайта шакллантиришда бир мунча қийинчиликларни келтириб чиқариши мумкин. Бошқа томондан мазкур ҳолат ёшлар учун имконият демоқдир. Ўзингизда бўлса, 2019-2020 йилги мавсумда Англиянинг “Челси” клуби трансфер тақибига учраган. Бунинг ортдан жамоа фақат академия ва ижарада юрган футболчиларини таркибга жалб этиш орқали кучайишга ҳаракат қилган. Натижада, ўша мавсумда Мейсон Маунт, Тэмми Абраҳам, Рис Джеймс каби номлар кашф этилган эди. Ҳар доим ҳам ёмон кўринган ҳолат аслида унчалик ёмон бўлавермаслигига мисол бу. Балки ушбу ҳолат ҳам бекободликлар фойдасига ишлар. Ҳаммасини вақт кўрсатади. Фақат бир нарсани ёдда тутиш лозим: қайта ташкил этилган жамоадан дарров натижа кутиш, бир ёки икки мавсумлик муваффақиятсизликдан сўнг ундан юз ўгириш каби ҳолатлар бўлмаслиги керак. Уларга имкон бериб, қўллаб-қувватланса, бекободликлар бунга жавобан тарихий натижалар қайд этишларига ишонамиз.

ШИЖОАТЛИ “НУРАФШОН”

Бу клуб ҳақида кўпчилик 2025 йилнинг сўнгига қадар эшитмаганди ҳам. Жамоа декабрь ойида Жиззахда ўтказилган Биринчи лигага ўтиш турнирида муваффақиятли иштирок этиб, йўлланмага эга чиқди. Ваҳоланки, турнирдаги рақиблар анча жиддий эди. Улар дастлаб гуруҳ босқичида “Учкудук” ва “Яйпан” жамоаларини мағлуб этишди. Кейинги босқичларда эса молиявий томондан кучли бўлган Термиз давлат университетининг “ТерДУ” ҳамда Қарши давлат университетининг “ҚДУ” ҳамда Наманганнинг “Баркамол” жамоалари таслим этилди. Булардан ташқари му-

собақада ҳозирда қатор тажрибали футболчиларни сафига қўшиб олиб, ўзбек футболда шов-шув кўтарайтган, Про-лига йўлланмаси соҳиби “Каттакўрган” жамоаси ҳам бор эди. Бироқ нурафшонликлар шижоат томонлама рақибларидан устунлик қилишиб, Биринчи лига йўлланмасига эга чиқишди.

Ҳўш, жамоанинг галдаги вазифаси қандай? Ўзбекистон миқёсида 3-даражали (Суперлига ва Про-лигадан кейинги) чемпионатда нурафшонликларга осон бўлмаслиги аниқ. У ерда яқин ўтмишда Суперлигада да иштирок этган “Оқтепа”, Сирдарё вилояти ҳокимлиги томонидан қўллаб-қувватланаётган, таркибига бир пайтлар ўзбек футболнинг келажиги, дея қаралган Аббосбек Махситалиев, Суперлигада етарли тажриба орттирган Азабат Абдуллаев ҳамда Шохназар Норбеков сингари таниқли чарм тўп усталарини қўшиб олган “Гулистон”, турли ёшлар тоифасида Ўзбекистон терма жамоасига маҳоратли футболчилар етказиб бераётган Одил Аҳмедов академиясининг “Аҳмедов ФК” каби клублар бор. Навоий бобомиз таъбири билан айтганда “Эмас осон бу майдон ичра турмоқ...” Бироқ нурафшонликлар осонликча таслим бўлмаслиklarини Жиззахда ўтган турнирда барчага исботлашди. Фақат баъзи масалалар уларнинг оёғидан чалмаса кифоя. Бу клубнинг молиявий аҳволи ҳамда учрашув ўтказиши учун майдон муаммоси. Маълумки, “Нурафшон” марказий ўйингоҳи ҳозирда талаб даражасида эмас. Уни қайта реконструкция қилиш эса вақт ва катта молиявий имконият талаб қилади. Мутасаддиларнинг таъкидлашича, ҳозирда мазкур масалаларни ҳал этиш бўйича ишлар давом этмоқда. Агар барчаси кўнгилдагидек кечса, “Нурафшон” янги мавсумни Биринчи лигада бошлайди.

“ҒАЗАЛКЕНТ” ҚАЙТМОҚДА

“Нурафшон” ортдан яна бир жамоа – Бўстонликнинг “Ғазалкент”и ҳам бошланжақ мавсумда профессионал футболга қайтиши кутилмоқда. Аслида бу жамоа бугун ё кеча ташкил этилган. Клуб 1993 йилда фаолиятини бошлаган ва 2000 йилгача Ўзбекистон Биринчи лигаси (ҳозирги Про-лига)да иштирок этган. Жамоа сафида ўз вақтида футбол билан шуғулланган, кейинчалик рефери сифатида танилган Равшан Эрматов, ўзбек футболда ўчмас из қолдирган Виктор Карпенко ҳамда Вадим Абрамов каби чарм тўп усталари тўп теган. 2000 йилда клуб инқирозга юз тутди. Натижада Про-лигадан тушиб кетади. Шундан сўнг клуб тарқатиб юборилганди.

Орадан чорак аср ўтиб, жамоа қайта тикланди. Жамоа бош мураббийи этиб яқин ўтмишнинг таниқли футболчиларидан бўлган Зайниддин Тожиев тайинланди. Бошқалардан фарқи ўлароқ, клуб асосини ёшлар ташкил этади. Эътиборлиси, уларнинг аксарияти Ўзбекистоннинг турли ёш тоифасидаги терма жамоаларда тўп тегди. Хусусан, Дийрбек Тожиев Ўзбекистон U-18 терма жамоаси аъзоси саналади. Азизилло Эркинжонов эса Ўзбекистон U-16 терма жамоаси сардори, яқинда 17 ёшгача бўлган терма жамоага ҳам қақирилди. Клуб раҳбариятининг таъкидлашича, “Ғазалкент”нинг асосий мақсади – ёш иқтидорли

Ҳа, Тошкент вилояти футболлари янги мавсум олдидан сон жиҳатдан сезиларли даражада кенгайди. Бир мавсум аввал вилоят шарафини ягона жамоа ҳимоя қилган бўлса, эндиликда турли ҳудудларни қамраб олган бир нечта клублар катта майдонга чиқмоқда. Бу, шубҳасиз, ижобий ҳолат. Бироқ асосий савол очик қолмоқда: жамоалар сонининг кўпайиши сифат ўсишига ҳам олиб келади? Ёки мазкур жараён фақатгина қисқа мuddатли “футбол қайтиши” билан чекланиб қолади? Бу саволларга аниқ жавобни ваъдалар ёки режалар эмас – майдондаги ўйин, натижа ва барқарорлик беради. Қайси жамоа ҳақиқий лойиҳа, қайси эса навбатдаги мавсумлик ташаббус эканини вақт кўрсатади. Бироқ, бир нарсани аниқ: рақобат бор жойда ўсиш бўлади. Демак, вилоят футболлари учун янги давр бошланмоқда.

Суҳробжон САДИРОВ,
“Тошкент ҳақиқати” шарҳловчиси



“ОКМК” клуби



“Металлург” клуби



“Нурафшон” клуби



“Ғазалкент” клуби



TOSHKENT HAQIQATI
TASHKENTSKAYA PRAVDA

Muassis:

TOSHKENT
VILOYATI
HOKIMLIGI



“Toshkent haqiqati” va
“Tashkentskaya pravda”
gazetalarini tahrir hay'ati:

Zoyir MIRZAYEV
(tahrir hay'ati raisi)

Abdusamad NOSIROV
Ummat MIRZAQULOV
G'afurjon MUHAMEDOV
Sayyora FAYZIYEVA

Abduvosit ABDURAZZOQOV

Mahmud TOIR
Azamat MIRZAYEV
Uskenboy ATEMOV
Abdulla XURSANOV
Otabek SULTONBEKOV
Kumush EGAMBERDIYEVA
Olimjon BEGALIYEV
Sergey MUTIN

Bosh muharrir o'rinbosari,
nashr uchun mas'ul:
Suhrobjon SADIROV
Mas'ul kotib:
Alloma AZIZOVA
Navbatchi:
Mehridin IBRAGIMOV
Ekspeditor:
Behruz NURBOBOYEV

Qabulxona:
(55) 520-64-95
Bosh muharrir o'rinbosari:
(55) 520-04-10
Mas'ul kotib:
(55) 520-05-10
Bo'lim muharrirlari:
(55) 520-06-20, (55) 520-04-20
E'lonlar va hisob-kitob bo'limi:
(55) 520-21-20
e-mail: toshkenthqiqati@uemail.uz

Bosishga topshirish vaqti – 20:00.
Bosishga topshirildi – 19:30.
Nashr ko'rsatkichi – 205.
Buyurtma G-135.
7 386 nusxada chop etildi.
Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida
bosildi. Qog'oz bichimi A–2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Toshkent viloyati Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar boshqarmasida
2011-yil 12-yanvarda
03-001 raqami bilan
ro'yxatga olingan.

Manzil:
111500, Nurafshon shahri,
Toshkent yo'li ko'chasi, 90.
Toshkent shahridagi
ofisimiz: Bektemir tumani,
Ittifoq ko'chasi, 2.
ISSN 2010-9318.

Gazeta «Toshkent haqiqati»
tahririyati kompyuter markazida
terildi va Tahir Mahmudxo'jayev
tomonidan sahifalandi.
Haftaning
chorshanba va shanba
kunlari chiqadi.

«SHARQ» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasida bosildi.
Korxonasi manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.